

Uyimiz xonalari Tushum kelishigi



1-topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini so'zlab bering.

Biz ko'p qavatli uyda yashaymiz. Uyimiz yorug' va shinam. Unda mehmonxona, yotoqxona, bolalar xonasi, oshxona va hammom bor. Har bir xonani toza saqlaymiz.

Oshxonamizda mazali taomlar tayyorlanadi. Biz har kuni oshxonada o'tirib ovqatlanamiz. Yotoqxonada uxlab dam olamiz. Bolalar xonasida dars tayyorlaymiz va o'ynaymiz. Mehmonxonada oila a'zolarimiz bilan dam olamiz.

Uyimiz – biz uchun eng aziz maskan.



Tushum kelishigi **kimni?, nimani?, qayerni?** so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Tushum kelishigi belgisi bo'lsa, so'zga **-ni** qo'shimchasi qo'shiladi. Belgisiz qo'llanganda, qo'shimcha tushib qoladi. Lekin mazmunda uning o'rni saqlanadi.

Belgili tushum kelishigi: Men bolalar *xonasini* o'zim tozalayman.

Belgisiz tushum kelishigi: Men *kitob* o'qiyman.

-ni qo'shimchasi **men, sen** kabi olmoshlarga qo'shilganda bitta **n** harfi tushib qoladi. **Masalan:** *men+ni – meni, sen+ni – seni.*




2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Uyingizda nechta xona bor?
2. Uyingizda qanday xonalar bor?
3. Uyingiz toza va chiroyli bo'lishi uchun nima qilasiz?
4. Siz uyingiz tozaligiga qanday hissa qo'shasiz?
5. Sizning uydagi majburiyatlaringiz nimalardan iborat?





3-topshiriq. Rasmlar asosida matn tuzing.



1-mashq. Nuqtalar o'rniga qo'shimchalardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Biz har kuni uyda changlar(-da, -ni) artamiz. 2. Onam oshxona(-da, -ga) ovqat tayyorlaydi. 3. Kitoblar javoni(-ning, -ni) tartibga soldim. 4. Deraza(-ga, -dan) quyosh nuri tushadi. 5. Biz gullar(-da, -ga) suv quydik. 6. Onam gilam(-ning, -ni) yuvdi.



2-mashq. Rasmlarni so'z bilan ifodalab, gaplarni ko'chiring.



Opam ayvondagi

ni parvarish qiladi. Biz uyimizdagi xonalarni


bilan tozalaymiz. Bolalar xonasidagi jihozlarni toza saqlaymiz.

Onam yotoqxonadagi



ni yuvdi. Mehmonxonaga yangi

ilamiz.





3-mashq. Gaplarda *kim?*, *nima?*, *nimani?*, *nimaning?* so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni topib, so'rog'ini qo'yib yozing.

Namuna: Men oshxonadagi idishlarni (*nimani?*) javonga qo'ydim.

1. Biz yotoqxonaga gilamni soldik.
2. Onam oshxonadagi idishlarni tozaladi.
3. Bobom bilan otam tomni ta'mirladilar.
4. Bu – mehmonxonaning eshigi.
5. Bolalar xonasidagi yotoqlar yangi.



4-mashq. Gaplarga mos savollar tuzing.

1. Men kitob o'qishni yaxshi ko'raman.
2. Donishmandlar kitobni eng sodiq do'st deyishadi.
3. Do'stlarimiz bilan qiziqarli kitoblar haqida suhbatlashdik.
4. Biz kutubxonadan kerakli kitoblarni oldik.
5. Men Orif To'xtash she'rlarini sevib o'qiyman.



5-mashq. Buyumlarni xonalarga to'g'ri joylab, gaplar tuzing.



Foydalanish uchun so'zlar: xarita, kiyim javoni, idishlar javoni, yozuv stoli, qandil, stol lampasi, stol, kitob javoni, gilam, ko'zgu, gullar, yotoq, stullar, kompyuter, rasm, tungi chiroq, gaz plitasi, o'yinchoqlar, sovitkich, divan, g'aladon, kreslo, televizor.



6-mashq. Matnni o'qing. *Nimani?* so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni topib yozing.

Men yashaydigan shaharda ko'p qavatli uylar juda ko'p. Biz ham shunday uylarning birida yashaymiz. Men o'z uyimni yaxshi ko'raman. Uyimizda har birimizning o'z vazifalarimiz bor. Otam ro'zg'or uchun kerakli mahsulotlarni olib keladi. Onam mazali ovqatlar tayyorlaydi. Men mehmonxona, yotoqxona va bolalar xonasini tozalayman. Opam yuvinish xonasi, ayvon va oshxonaning tozaligiga javob beradi. Singlim bolalar xonasidagi changlarni artadi. Ukam esa chiqindilarni olib chiqib tashlaydi. Bobom va buvim uydagi hamma gullarni parvarish qilishadi. Biz uyimizni toza va ozoda saqlaymiz.



Uyingiz haqida kichik matn tuzing. Lug'atdagi so'zlarni yodlang.

